

SOVET DAVLATINING OXIRGI QATAG‘ONI PAXTA ISHI QATAG‘ONI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Masharipov Shavkat Ro‘zimovich

Sh.Rashidov nomidagi SamDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari
xotirasi muzeyi xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sovet davlatida amalga oshirilgan qatag‘onlarning oxirgi davri O‘zbekistonda XX asr 80 -yillarida “paxta ishi”, keyinroq “o‘zbeklar ishi” degan ma’lum nom ostida tarixga kirganligi haqida fikr yuritiladi. Qatag‘on davrida Samarqand viloyatida ham butun respublikada bo‘lgani kabi ayovsiz ravishda aybsiz kishilar iskanjaga olinib, mislsiz azob-uqubatlarni boshdan o‘tkazdi. T.Gdlyan boshchiligidagi tergov guruhi noqonuniy usullardan foydalanib, yillar davomida ayblanuvchilarga nisbatan jismoniy va ruhiy jihatdan azob berishdi. Shu tariqa KPSS Markaziy Komiteti tomonidan “Paxta ishi” o‘zbeklar ishiga aylantirildi. Tadqiqot davomida to‘plangan dalillar atroflicha o‘rganilib, unga ilmiy nuqtai nazardan baho berildi.

Kalit so‘zlar. KPSS MK, Bosh sekretar, byuro, O‘zSSR, mustabid, ma’lum, sho‘ba.

ПОСЛЕДНЯЯ РЕПРЕССИЯ СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА: РЕПРЕССИИ ПО «ХЛОПКОВОМУ ДЕЛУ» (НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация: В данной статье рассматривается заключительный этап репрессий в Советском государстве, который в Узбекистане в 80-е годы XX века вошёл в историю под зловещими названиями «хлопковое дело», а позднее — «узбекское дело». В период репрессий в Самаркандской области, как и по всей республике, безжалостно подвергались преследованиям невинные люди, испытывавшие небывалые страдания и мучения. Следственная группа под руководством Т. Гдляна, используя незаконные методы, на протяжении многих лет оказывала на обвиняемых физическое и психологическое давление. Таким образом, по решению ЦК КПСС «хлопковое дело» было превращено в «узбекское дело».

В ходе исследования собранные материалы были всесторонне изучены и оценены с научной точки зрения.

Ключевые слова: ЦК КПСС, Генеральный секретарь, бюро, УзССР, тоталитарный, зловещий, отдел.

THE LAST REPRESSION OF THE SOVIET STATE: THE “COTTON AFFAIR” REPRESSIONS (THE CASE OF SAMARKAND REGION)

Annotation: This article examines the final stage of repressions in the Soviet state, which in Uzbekistan in the 1980s entered history under the notorious name of the “cotton affair” and, later, the “Uzbek affair.” During this period of repression, as in the rest of the republic, innocent people in Samarkand region were mercilessly subjected to persecution and endured unprecedented suffering and torment. The investigative team headed by T. Gdlyan made use of unlawful methods and, over many years, inflicted physical and psychological pressure on the accused. In this way, by decision of the CPSU Central Committee, the “cotton affair” was transformed into the “Uzbek affair.” In the course of the research, the collected evidence was comprehensively examined and assessed from a scholarly perspective.

Keywords: CPSU Central Committee, General Secretary, bureau, Uzbek SSR, totalitarian, notorious, department.

Ma'muriy – buyruqbozlik hamda kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlati o'z ichki siyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida ma'lum davrlarda zo'ravonlik siyosatini amalga oshirib turgan.

O'zbekistonda sovet rejimi tomonidan amalga oshirilgan qatag'onlarning eng oxirgisi paxta ishi sifatida tarixga kirgan. Aslini olganda paxta ishi – mustabid sovet rejimi tomonidan O'zbekistonda 1983 – 1991 yillarda amalga oshirilgan qatag'onlarni niqoblash uchun o'ylab topilgan rasmiy nom edi. Aynan paxta ishi keyinchalik Markaz vakillarining tashabbusi bilan asossiz tarzda o'zbeklar ishiga aylantirildi.

Aslini olganda sovet rejimi tomonidan O'zbekistonda qatag'onlarning to'liqini 1983 yildan ancha oldin boshlangan edi. O'sha paytda qatag'on qilichi o'zbek xalqining 3 nafar farzandiga qarshi qaratildi. 1974 yil 25 sentyabrda Moskvada O'zbekiston SSR Oliy sudining sobiq raisi Sadulla Xo'jaevich Po'latxo'jaev tuhmat va ig'vo natijasida hibsga olindi hamda u Toshkentda 1976 yil 8 iyunda bo'lgan sud majlisi hukmiga ko'ra 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan edi. 1994 yil yanvar oyida S.Po'latxo'jaev O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining qarori bilan oqlandi. [1]

Bundan tashqari huquqni muhofoza qilish organlari tomonidan SSSR Oliy Sovetining Millatlar Soveti raisi (1970–1974), SSSR qurilish materiallari sanoati ministri o'rinbosari (1974–1978) lavozimlarida ishlagan Yodgor Sodiqovna Nasriddinova (1920–2010)ga nisbatan 1975 yilda jinoiy ish qo'zg'atishga harakat qilindi. Biroq Moskvadagi oliy partiya rahbarlarining aralashuvi bilan Yo.Nasriddinovaga nisbatan qo'zg'atilgan ish to'xtatildi. [2]

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining raisi lavozimida 1961 -1971 yillarda faoliyat ko'rsatgan Rahmonqul Qurbonovich Qurbonov (1912–2012) ham 1975 yil may oyida hibsga olinib, O'zbekiston SSR Oliy sudi tomonidan “poraxo'rlikda ayblandi” hamda 8 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi. Faqat SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi L.I.Brejnevning 1977 yil 13 oktyabrdagi farmoni bilan u

qamoq jazosini o'tashdan ozod qilindi. 1978 yil 30 iyulda O'zbekiston SSR Oliy sudi uni oqlaydi. [3]

KPSS MK Bosh sekretari, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Leonid Ilich Brejnev 1982 yil 10 noyabrda vafot etgach, mamlakatning yangi siyosiy arbobi Yuriy Vladimirovich Andropov tashabbusi bilan 1983 yil fevralda KPSS MK Siyosiy byurosi O'zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko'zbo'yamachilik haqida tekshirishlar o'tkazish to'g'risida maxsus qaror qabul qilib, bu vazifani bajarish uchun SSSR prokuraturasida maxsus tergov komissiyasi tuzishni topshirdi. 1983 yil aprelda T.X.Gdlyan va N.V.Ivanov rahbarligida ana shunday maxsus tergov guruhi tuzildi. SSSR Bosh prokuraturasining tergov qismi boshlig'i G.P.Karakazov bu guruh faoliyatini boshqarib turishi kerak edi. [4]

O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1984 yil 23 iyunda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi ma'shum rol o'ynagan. Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan ushbu plenumda qabul qilingan hujjatlar O'zbekiston, ayniqsa, o'zbek halqini asossiz badnom etish kampaniyasini boshlab berdi. Plenumda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Inomjon Usmonxo'jaev ma'ruza qildi. Unda Moskvadan maxsus yuborilgan KPSS MK sekretari Ye.K.Ligachev (u nutq so'zlagan). boshchiligidagi Markaz emissarlari 18 -23 iyun kunlari Toshkentdan tashqari Buxoro va Samarqandda ham bo'lishgan. [5]

1983 yil SSSR Bosh Prokurori A.M.Rekunkov topshirig'iga ko'ra, SSSR Prokuraturasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligidagi mamlakatning turli mintaqalaridan to'plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuziladi va O'zbekistonga yuboriladi. Bu "paxta ishi"ning amaldagi boshlanishi edi. [6]

1983 yildan Markaziy Ko'mitaning ko'rsatmasi asosida rahbarlar ustidan jinoiy ishlar qo'zg'ash boshlandi.

1988 yil 19 oktyabrda Toshkentda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti byurosi majlisida birinchi sekretar Rafiq Nishonov O'zbekistondagi ikkita yirik viloyatlar partiya tashkilotlarining rahbarlari bo'lgan Nozir Rajabov va Ismoil Jabborov (Buxoro viloyat partiya komiteti birinchi sekretari)ni nohaq ravishda poraxorlikda ayblaydi. Ular o'z lavozimlaridan ozod qilinib, partiyadan o'chiriladi. Byuro majlisidan ezilgan va noxush kayfiyatda chiqqan N.Rajabov va I.Jabborov Toshkent ko'chalarida alohida guruh a'zolari tomonidan qo'lga olinib, maxsus samalyot bilan Moskvaga keltiriladi. Ular SSSR va O'zbekiston SSR Oliy Soveti deputatlari bo'lishiga ham, sovet rejimi deputat daxlsizligi maqomiga rioya qilmadi. Shu tariqa ikkalasini ham bir kunda – 1988 yil 19 oktyabrda hibslashgan edi. Rajabovni kelasi yili 19 iyulda tergov olib borilayotgan vaqtidayoq qo'yib yuborishdi. Uning ustidan o'tkazilgan tergov jinoyat tarkibi bo'lmaganligi sababli ishni yotqizish haqida qaror chiqarilishi bilan nihoyasiga yetdi.

To‘g‘ri, to‘qqiz oy asossiz ravishda qamoqda bo‘lish – bir yarim yoki uch yil emas, albatta. Ammo halol va vijdonli, aybsiz odam uchun hatto bir kun, bir soat qamoqda bo‘lish – g‘oyatda fojiali holdir.

N.Rajabov turmada saqlangan to‘qqiz oy ichida shunchalik azob-uqubatlarni boshidan kechirdiki, o‘tgan butun umri davomida ham bunchalik uqubat tortmagan edi.[7]

“Paxta ishi” va “O‘zbeklar ishi”, deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan gruhi o‘zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo‘ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi[8]. Markaz qatag‘onga partiya organlari, huquqni muhofoza etuvchi soha, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligining yuqoridan quyigacha bo‘lgan xodimlarni tergov jarayoniga tortildi.

Masalan, 1986 yil, 1 mart kunda, Samarqand oblast sudining ochiq sud majlisi Jomboy tumanida Tenglashev Abduraim -1935 yilda tug‘ilgan, ma‘lumoti oliy, KPSS a‘zosi bo‘lgan, A.Qurbonov nomli sovxozda NOT injeneri bo‘lib ishlagan. U O‘zSSR JKning 119-1, 153-2, 149-1, 155 moddalari bilan ayblanib 14 yilga ozodlikdan mahrum qilingan.

O‘zSSR Oliy sudining Plenumi qarori bilan 1990 yil 14 dekabrda 14 yillik qamoq jazosi 4 yilga tushiriladi.

Qodirov Amir – 1949 yilda Samarqand viloyati Jomboy tumanida tug‘ilgan, KPSS a‘zosi bo‘lgan, A.Qurbonov nomli sovxozda paxta topshiruvchisi bo‘lib ishlagan. Unga O‘zSSR JKning 119-1, 153-2, 17-149-1 moddalari bilan ayblanib 12 yilga ozodlikdan mahrum qilingan.

O‘zSSR Oliy Sudining Plenumi qarori bilan 1990 yil 14 dekabrda 12 yillik qamoq jazosi 3 yilga tushiriladi. [8]

1985 yil 14 oktyabrda O‘zSSR Oliy sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining ochiq sud majlisida.

Atamurodov Rashid -1938 yilda Samarqand viloyati Pasdarg‘om rayon Bakiroq qishlog‘ida tug‘ilgan, KPSS a‘zosi Samarqand paxta tayyorlash punktida mudir bo‘lib ishlagan 1984 yil 13 iyunda qamoqqa olingan. O‘zSSR JKning 119-1, 149, 155, 153-2, 12 yilga ozodlikdan mahrum qilingan.

Mustafaqulov Turkman -1951 yilda Pasdarg‘om tumani Kirov kolxozining Burgali qishlog‘ida tug‘ilgan. Ulug‘bek paxta punktiga qarashli Xoncharvoq paxta punktida bosh buxgalter bo‘lib ishlagan. O‘zSSR JKning 118-2, 155, 40-moddalari qo‘llanilib 8 yilga ozodlikdan mahrum qilingan.

Xatamov Isroil -1957 yilda Pasdarg‘om tumani 22 partse‘zdi kolxozida tug‘ilgan. Samarqand paxta tozalash punktida bosh buxgalter bo‘lib ishlagan, 1984 yil 13 iyulda qamoqqa olingan. O‘zSSR JKning 17-119-1, 42, 151, 155, 40-moddalari bilan 8 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. [9]

Xullas, paxta ishi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilganlarning ko‘pchiligi kolxoz raislari va sovxoz direktorlari, brigadirlar, buxgalterlar va paxta tozalash zavodi ishchilarini tashkil etgan. Umuman olganda, 4018 nafar kishi bu ish bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Sovet davlatini qamrab ola boshlagan inqiroziy holatlarni mavjud tuzum negizida emas, balki yuzaga kelgan salbiy illatlarda deb bilgan Markaz bu davrda O‘zbekistonni tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab oldi. [10]

Xulosa qilib aytganda, Sovet davlatining amalga oshirgan qatag‘onlarning oxirgi davri O‘zbekistonda XX asr 80-yillarida “Paxta ishi keyinroq “o‘zbeklar ishi” degan ma’lum nom ostida tarixga kirdi.

O‘rganilayotgan mazkur muammo Vatanimizning yaqin o‘tmishida sodir bo‘layotganligi nuqtai nazaridan muammoni tadqiq etishda turli manbalarga tayanish nisbatan osonligi bilan ajralib turadi. Xususan, muammoni tahlil qilishda arxiv materiallaridan unumli foydalanish imkoniyati ko‘pligi hamda qatag‘on qurbonlarining aksariyati hali hayot ekanligi masalani oydinlashtirishga yordam beradi.

Фойдаланилган мабаалар ва адабиётлар рўйхати

1. Акбаров Ш. Агар дардим баён этсам... Бир мудҳиш тухмат тафсилоти (Тарихий -хужжатли роман). – Тошкент.”Янги нашр”. 2009. 368-бет.
2. Илюхин В. Қабоҳат ёхуд... (“Ўзбеклар иши” деган уйдирма хусусида). – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1993. 173-174-бетлар.
3. Лигачев Е.К. Ўзбекистонда бўлиши // “Қишлоқ ҳақиқати”, 1984 йил 24 июнь.
4. Лиханов Д. Кома // Оганёк. – М., 1989. -№4. -С. 20-21.
5. Ражабов Қ. Юзни қаршилаган Раҳмонқул ота (Давлат ва ҳўжалик арбоби Раҳмонқул Қурбонов фаолиятига чизгилар) // Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945-1983й.). 204-206-бетлар.
6. Саҳкин А. Порахўрлик. Бир аёлнинг ҳаётидан олинган фактлар асосида ана шу одатни таҳлил қилишга уриниш // “Совет Ўзбекистони”, 1988 йил 4 ноябрь.
7. Самарқанд вилоят давлат архиви 1705-жамғарма, 617-иш.
8. Самарқанд вилоят давлат архиви 1705-жамғарма, 594-иш.
9. Хлопковое дело // [https://ru. Wikipedia. org/ wiki](https://ru.wikipedia.org/wiki).
10. Юнусова Х. Ўзбекистонда пахта иши қатағонлари ва унинг оқибатлари // Ўзбекистон совет давлатининг қатағон сиёсати келиб чиқиши ва фожеали оқибатлари (Илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 2002. 75-76-бетлар.